Research and publications

TAFAKKUR MANZILI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2025

www.reandpub.uz
+998 (97) 277 78 01
info@reandpub.uz

TAFAKKUR MANZILI

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

10-SON, 1-JILD OKTABR - 2025-YIL 1-QISM

TAFAKKUR MANZILI
2025 - OKTABR

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAFAKKUR MANZILI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firuza Xurshidovna
Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Shamshiyeva Hulkar
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna
Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qito'vchisi

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qiituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Erkaboy Yu. Derdibaev
Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

ОНА ҚАДРИ

Раҳматулло ШОБЕРДИЕВ.

Сурхондарё вилояти Термиз туманидаги 14 –мактабнинг 11-синф ўқувчиси.

Бунчалар бешавқат одам боласи,
Эшитмайди ҳатто она ноласин.
Қадрига етишар, бўлганда нобут,
Дилларни эритар, кўзин жоласин.

Аҳир одам қилган она эмасми,
Ўзини камситган, ўзгага боқмай.
Фақат болам деган она эмасми,
Баъзида қўлига , узуклар тақмай.

Боласин ўйлайди, ҳатто эрта кеч,
Ўзига парволар қилмайди ҳеч ҳам.
Фаришта дейсанми, фаришта у ким?
Фаришта ҳам оналарни ардоқлайди жим.

Ақлимиз кирмасми буларни билиб,
Юрамиз бемалол юрагин тилиб,
Кун келиб деворга урилар бошлар,
Афсуски фойдасиз оқар кўз ёшлар.

Тириклик чоғида қадрига етгин,

Кибр дарвозасин тезда тарк этгин.

Ардоқла фақат онайи зоринг,

Дунёда боринғдир кун келиб йўғинг...

Устозлар

У инсонни эсласам келар кўзимга дарахт

Баъзан уҳлаб қолганман эртакларидан карахт

Дарахтга ўхшатган сабабим шуки,

Устозим бизларга берганлар адаб.

Аслида устозлар чекади заҳмат,

Ҳар эслаганда айтилар раҳмат.

Биз учун умрини кетказар доим,

Уларни ҳурмат қилар ҳаттоки ойим.

Ерга қараб ўт, келсанг рўпара,

Дарсларида асло бўлма бепарво.

Уларга керакмас совға саломинг

Чиройли бўлса бас ҳаёт, давоминг.

O'ZBEK VA TURK TOPISHMOQLARIDA TABIAT OBRAZINING IFODALANISHI

Muhammadsodiq SHODMONOV Alfraganus Universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va turk topishmoqlarida tabiat obrazlarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining qadimiy janri sifatida, tabiat hodisalari va narsalarini badiiy-estetik usullar bilan ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Maqolada bulut, shamol, suv kabi tabiat obrazlari xalq dunyoqarashi va madaniyatiga qanday singib ketgani, ular orqali inson tabiatni anglash jarayoni yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek va turk topishmoqlarida ifodalanadigan tabiat obrazlarining umumiyliklari va milliy o‘ziga xosliklari ko‘rsatilib, bu janrning folklordagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Topishmoq, tabiat obrazlari, folklor, og‘zaki ijod, o‘zbek topishmoqlari, turk topishmoqlari, badiiy ifoda, anonimlik, madaniyat.

Kirish

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e`tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda–«insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I.Buslaev) paydo bo`la boshlagan.[1]

Topishmoq - bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi Topishmoqlar bir necha so‘zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo‘lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar qofiya holida keladi.[2] Xalq topishmoqlari

[1] Qalandarov Shuhratjon Sopoxonova Gulnoza Topishmoqlar va ularning o’ziga xos xususiyatlari Barqaror Taraqqiyo va rivojlanish tamoyillari resublika ilmiy-amaliy konfrensiya Volume: 2 Issue: 1 B – 30

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq

folklorning eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib hozirgacha o‘zining ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda[3].

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e’tibor bering. “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma’nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda, vazifa aniqlashadi. “-moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin “qo'lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. Mahmud Koshg‘ariy topishmoqni qadimda “tabzug‘” deyishganini qayd etadi. “Tabzug‘uq tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so'radim) jumlasini keltiradi. Bu ma’lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi.[4]

Z.Xusainova o‘zining “O‘zbek topishmoqlari” kitobida o‘zbek topishmoqlarining XIX asrga qadar o‘rganilmagani va to‘plam holiga keltirilmaganini va o‘rganish va to‘plam holiga keltirish XIX asrdan boshlanganligini qayd etadi[5]

Omonulla Madayev o‘zining “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” nomli o‘quv qo‘llanmasida quyidagilarni keltiradi: “Topishmoqning paydo bo‘lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma’lumotlar yo‘q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab keltirilgan “Devonu lug'otit turk” asarida “tabzug‘” so‘zi uchragani holda topishmoq matni yo‘q. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o‘xshaganligi uchun bu ikki janrning vujudga kelish vaqti ham bir xil bo‘lishi kerak, degan taxmin bildirilgan. Biz ham shu fikrga qo‘shilamiz”[6] - deb o‘tadi

Turk olimi Ilhan Bashgo‘z “Türk Folkloruna Giriş” nomli asarida folklor namunasi bo‘lgan topishmoq, maqol kabilarga umumiy folklor haqida quyidagi fikrni beradi: Başgöz, çalışmasının girişinde “Folk-lore: Halk kültürü, halk bilimi, tarif ve çalışma alanı”

[3] Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti 1996 B. 2
[4] Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” T.: “Mumtoz so‘z” nashriyoti 2010 B. 77
[5] Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti 1996 B. 6
[6] Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” T.: “Mumtoz so‘z” nashriyoti 2010 B. 80

başlığı altında bir bilim olarak “folklor”u tanımlamayla işe başlar. Yabancı araştırıcılarca ortaya konan sekiz adet folklor tanımını iktibas eder ve folklor ürünlerinin, “Anonim olmak, yani yaratıcısı bilinmemek”, “Sözlü olmak” ve “Geleneksel olmak” özelliklerini kültürümüze ait iki bilmece, iki atasözü, iki mani, bir türkü ve bir kadı fıkrasını örnek vererek açıklar[7].

Tarjimasi:

"Başgöz o‘z ishining kirish qismida 'Folklor: Xalq madaniyati, xalq bilimlari, ta’rifi va tadqiqot sohasi sarlavhasi ostida folklorni bir fan sifatida ta’riflashdan boshlaydi. U xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan sakkizta folklor ta’rifini keltiradi va folklor mahsulotlarining quyidagi xususiyatlarini — “Anonim bo‘lishi, ya’ni yaratuvchisining noma’lum bo‘lishi”, “'Og‘zaki bo‘lishi” va “An’anaviy bo‘lishi” — madaniyatimizga oid ikki topishmoq, ikki maqol, ikki mani, bir qo‘shiq va bir qiziqarli latifa orqali tushuntiradi."

Ilhan Bashgo‘zning folklor haqida keltirgan fikridan folklor namunasi bo‘lgan topishmoq haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin: U topishmoqlarni (bilmece) xalq ijodining uch asosiy belgisi — anonimlik, og‘zaki shakl va an’anaviylik — nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu esa tabiat obrazining ifodalanishini o‘rganishda topishmoqlarning folklordagi o‘rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Prof. Dr. Shukru Elchin o‘zining “Türk bilmeceleri” (Turk topishmoqlari) asarida turkiy qardosh xalqlarida topishmoqning nomlanishi haqida ma’lumot beradi: Doğu ve Kuzey Türkleri ile Azeri sahası aynı manaya gelen tabmak filini ve bu kökten türeyen "tabzuğ", "tabmaca" kelimelerini kullanmaktadırlar. Ayrıca Türkmenlerde "matal" Kırgızlar, Kazaklar, Karakalpaklar arasında "cumbak", Kazanlilar'da "tabişmak" yanında "cumbak", Başkirtlarda ise yine bu kökten gelen "yumak" sözü yaygındır. Anadolu'nun bözi köy ve kasabalarında bilmaca umumî ismi yanında masal, mesel, matal, hikâye, metel, bulmaca, söz, dele, gıcık, gazelleme ... gibi kelimeler yasamaktadir [8]

[7] Salahaddin Bekki Prof. Dr. İlhan Başgöz’ün Yayımlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine folklor/edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019/4 S - 746
[8] Elçin Şükrü. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989. S. 1

Tarjimasi:

Sharqiy va shimoliy turklar hamda ozarbayjonlar bir xil ma’noga ega bo‘lgan tabmak fe’li va shu o‘zakdan olingan “tabzuğ” va “tabmaca” so‘zlarini ishlatadilar. Bundan tashqari, turkmanlarda “matal” so‘zi, qirg‘iz, qozoq va qoraqalpoqlarda “cumbak”, qozonlilarda “tabishmak” yonidagi “cumbak” va shu o‘zakdan kelib chiqqan “yumak” so‘zi keng tarqalgan. boshqirdlar. Anadoluning ko‘pgina qishloq va shaharlarida ridaca umumiy nomidan tashqari ertak, masal, matal, hikoya, metel, boshqotirma, so‘z, gıcık, g‘azallama... kabi so‘zlar ham qo‘llaniladi.

Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt reallikka asoslanadi. Unda atrofimizdagi o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Topishmoqda atrofimizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urf-odatlari aks etadi. Unda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi[9].

Quyida o‘zbek topishmoqlarida tabiat obrazlarining ifodalanishiga oid misollarni ko‘rib chiqamiz.

Osmonda oq kaptarlar, qanoti qog'ozdan? Javob: Bulut

"Osmonda oq kaptarlar" — bulutlar *oq qushlar*ga o‘xshatiladi. "Qanoti qog‘ozdan" — bu yerda bulutning yengilligi, nozikligi ko‘zda tutiladi.

Obrazli ifoda: "Oq kaptarlar" — xalq badiiy tafakkurida kaptar (qush) tinchlik, erkinlik va yengillik timsolidir. Bulut esa osmon uzra harakatlanadigan oq, yengil massa bo‘lib, kaptar obraziga yaqin tasvirlanadi. "Qanoti qog‘ozdan" — bu ibora orqali bulutning nozikligi, yengilligi, parrandadek uchib yurishi poetik ifodada beriladi.

Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, eshikni ochar-yopar? Javob: Shamol

[9] Hamidova Muhayyoxon Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti N.: “Usmon Nosir media” nashriyoti, 2022, B – 42-43

“Qo‘li yo‘q, oyog‘i yo‘q” — bu jumla shamolning ko‘rinmas, jismoniy a’zolarsiz mavjudligini bildiradi. Eshikni ochar-yopar — shamolning ta’siri, ya’ni harakatlantirish xususiyati obrazli ifoda orqali ko‘rsatilgan. Bu topishmoq inson ko‘ziga ko‘rinmaydigan, ammo harakat va kuch orqali seziladigan tabiat hodisasi — shamol haqida. Shamol nafas, hayot, lekin ba’zan xavf timsoli sifatida ham folklorda muhim rol o‘ynaydi

Ketar, ketar izi yo‘q,

Tayanmoqqa tizi yo‘q Javob: suv

"Ketar, ketar izi yo‘q" – bu yerda suvning harakatchanligi va doimiy oqib ketishi, ammo barqaror iz qoldirmasligi ta’riflangan. "Tayanmoqqa tizi yo‘q" – ya’ni suvda turg‘unlik yo‘q, tayanch bo‘la olmaydi, tizzasi yo‘q degan obrazda mustahkamlik yetishmasligi ifodalanadi.

Quyida turk topishmoqlarida tabiat obrazlarining ifodalanishiga oid misollarni ko‘rib chiqamiz.

Havada uçar, kanadı yok. (Bulut)

Tarjimasi:

Havoda uchar, qanoti yo‘q.Javob: *Bulut*

"Havoda uchadi" — bu ifoda orqali bulutning osmonda harakatda bo‘lishi nazarda tutiladi."Qanoti yo‘q" — bulutning uchayotgan bo‘lsa-da, uni harakatlantiruvchi qanot kabi jismoniy a’zosi yo‘qligi poetik tarzda ta’riflangan.

Elsiz, ayaksız kapı açar. (Rüzgär)

Tarjimasi:

Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochadi. Javob: *Shamol*

"Qo‘lsiz, oyoqsiz" — ya’ni insoniy tana a’zolariga ega bo‘lmagan, harakatsizdek tuyuluvchi mavjudot haqida so‘z bormoqda. "Eshik ochadi" — bu mavjudotning harakati mavjudligini,

kuchi borligini bildiradi. Bu yerda shamol obraz sifatida tasvirlanadi: ko‘rinmaydi, tutib bo‘lmaydi, ammo ta’siri yaqqol seziladi (masalan, eshikni ochib yuboradi).

Yere kızar,

Göğe çıkar,

Akıllınız belki çözer. (Su)

Yerdan xafa bo‘lar,
Osmonga chiqar,
Aqlingiz balki topar. Javob: *Suv*

"Yerdan xafa bo‘lar" –bu ifoda suv quyoshda qizib ketganida bug‘lanishini ramziy tarzda ifodalaydi.
U "xafa" bo‘lib (ya’ni qaynab, o‘zgarib), yerda qolishni istamaydi, ya’ni ko‘tariladi.

Bu yerda insoniy his-tuyg‘u – “xafa bo‘lish” orqali tabiat hodisasi (bug‘lanish) tasvirlangan. Bu jonlantirish (personifikatsiya) usuliga ajoyib misol. "Osmonga chiqar" – bu – bug‘ning ko‘tarilishi, ya’ni suvning gaz holatiga o‘tib, osmon (atmosfera) sari yo‘l olishini anglatadi.

"Aqlingiz balki topar" – bu turk xalq ijodiga xos yumshoq, odamni hurmat qilgan holda fikrlashga chorlovchi ibora.

O‘zbek va turk topishmoqlarida tabiat obrazlari ifodasi umumiylik va milliylik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Har ikki xalqning topishmoqlarida bulut, shamol, suv kabi tabiat hodisalari badiiy, majoziy, jonlantirilgan obrazlar orqali ifodalanadi. Bu hodisalar insoniyatning qadimiy e’tiqodlari – animizm, totemizm bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning nutqida, tafakkurida jonli va hissiy ifodada yashab kelgan. Jonlantirish (personifikatsiya) usuli ikki xalqning topishmoqlarida ham muhim poetik vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, “Yerdan xafa bo‘lar, osmonga chiqar” (suv) yoki “Qo‘li yo‘q, oyog‘i yo‘q, eshikni ochar-yopar” (shamol) kabi obrazlar – inson

his-tuyg‘ulari orqali tabiatni anglashga urinishdir. Bu orqali xalq tabiatga shunchaki hodisa sifatida emas, hayotning tirik va tuyg‘uli bir qismi sifatida qaraydi.

O‘zbek topishmoqlarida xalqona liriklik, turk topishmoqlarida esa lo‘ndalik va obrazli ifoda ustuvor. O‘zbek xalq topishmoqlari ko‘pincha she’riy ohangda, muloyim, chaqiruvchan uslubda aytiladi: Ketar, ketar izi yo‘q, Tayanmoqqa tizi yo‘q. Turk topishmoqlarida esa ifoda lo‘nda, aniq va kuchli obrazlar bilan beriladi: “Havada uçar, kanadı yok.”

XULOSA

O‘zbek va turk topishmoqlarida tabiat obrazlari xalqning dunyoqarashi, qadimiy e’tiqodlari va badiiy tafakkurining yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bulut, shamol, suv kabi tabiat hodisalari topishmoqlarda jonlantirish va majoziy usullar orqali tasvirlanib, xalqning tabiat bilan bog‘liq hissiyotlari va tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. Topishmoqlar nafaqat o‘yin, balki xalq madaniyati va tilining og‘zaki an’anasida muhim o‘rin tutadi. Ular orqali xalq o‘zining tabiat hodisalariga bo‘lgan munosabatini, dunyoni anglash va uni badiiy tasvirlash qobiliyatini namoyish etadi.Shuningdek, o‘zbek va turk topishmoqlarida ifoda uslubi, badiiy qiyofa va obrazlar orqali milliy o‘ziga xoslik va mushtarak madaniy ildizlar aniq seziladi. Bu esa ikki xalq folklorining o‘zaro bog‘liqligini va umumiy madaniy meros sifatida tabiat obrazlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bois, topishmoqlarni o‘rganish nafaqat til va adabiyotshunoslik, balki xalqning tabiatga bo‘lgan qarashlari va madaniyati haqida chuqurroq tushuncha olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Elçin Şükrü. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989.
2. Hamidova Muhayyoxon Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti N.: “Usmon Nosir media” nashriyoti, 2022,
3. Z.Xusainova “O‘zbek topishmoqlari” T.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti 1996
4. Omonulla Madayev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” T.: “Mumtoz so‘z” nashriyoti 2010
5. Qalandarov Shuhratjon Sopoxonova Gulnoza Topishmoqlar va ularning o’ziga xos xususiyatlari Barqaror Taraqqiyo va rivojlanish tamoyillari resublika ilmiy-amaliy konfrensiya Volume: 2 Issue: 1

6. Salahaddin Bekki Prof. Dr. İlhan Başgöz'ün Yayımlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine folklor/edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq

“Рақамли суд” концепцияси- судлар фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлашнинг муҳим омили.

Навоий вилоят суди раиси ўринбосари
Тимур Абдраманов

Навоий вилоят суди судьяси
Турғун Қаххоров

А Н Н О Т А Ц И Я

Мазкур маколада Ўзбекистон Республикаси суд тизимидаги ислоҳотлар, хусусан суд ҳокимияти органларини рақамлаштириш, суд органлари фаолиятига рақамли технологияларни жорий қилиш ҳамда судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш, шунингдек, судларнинг инфратузилмаси ва уларнинг моддий-техник таъминотини янада яхшилашга доир қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони мазмуни ҳақида баён этилган.

Калит сўзлар: судлар фаолияти, ислоҳот, ахборот-коммуникация, Фармон, сунъий интеллект, рақамлаштириш, электрон, адолат.

Бутун дунёда ахборот-коммуникация технологияларининг жадал суръатларда ривожланаётган бир вақтда “Рақамли суд” концепцияси амалга ошириш суд жараёнларини самарали, тезкор ва шаффоф бўлишини таъминлашга қаратилган ислоҳотларнинг муҳим қисмига айланмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 3 сентябрда “Суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори билан суд фаолиятини рақамлаштиришга оид ислоҳотларни амалга оширишга тамал тоши қўйилган эди.

Мазкур Қарор асосида амалдаги қонунчиликка суд органлари фаолиятига рақамли технологияларни жорий қилишга қаратилган бир қатор ўзгартириш ва қўшимчаларни киритиш билан боғлиқ нормалар белгиланди.

Унга кўра апелляция ва кассация инстанцияси судларида ишларни судьялар ўртасида автоматик равишда тақсимлаш, барча иштирокчиларни суд мажлисларининг вақти ва жойи ҳақида “SMS” хабар орқали бепул асосда хабардор қилиш, суд мажлисларида масофадан туриб, жумладан, мобиль қурилмалар ва электрон ҳамкорликнинг бошқа шакллари орқали иштирок этиш, суд қарорларини иш бўйича тарафларга онлайн тарзда юбориш каби қоидаалар жорий этилган.

“Рақамли суд” концепциясининг яна бир ҳуқуқий асоси 2025 йил 30 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Атроф-муҳитни асраш ва “яшил” иқтисодиёт” йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони ҳисобланади.

Мазкур Фармон асосида тасдиқланган Дастурда “Судлар фаолиятини рақамлаштириш ишларини жадаллаштириш” вазифаси доирасида – судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш, “Рақамли суд” концепцияси асосида ишларни босқичма-босқич тўлиқ электрон шаклда юритиш амалиётини жорий қилиш ҳамда Олий суд ҳузурида Ахборот технологиялари марказини ташкил этишни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат ишлаб чиқиш масласини белгилаб берилди.

Инсон манфаатлари, қонун устуворлигини таъминлайдиган суд соҳасини такомиллаштириш давлатимиз раҳбарининг доимий диққат эътиборида бўлганлиги сабабли, Президентимиз жорий йилнинг 27 февраль куни суд фаолиятини янада яхшилаш, очиқлик ва рақамлаштириш даражасини ошириш чора-тадбирлари юзасидан йиғилиш ўтказиб, унда суд фаолиятини рақамлаштириш даражасини оширишга қаратилган муҳим чора-тадбирлар белгиланган эди.

Мазкур чора тадбирларни амалий натижаси ўлароқ, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2025 йил 21 августда “Судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали одил судловга эришиш даражасини ошириш ҳамда суд тизимининг моддий-техник таъминотини яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди.

Фармон асосида судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш ҳамда рақамлаштириш жараёнларини жадаллаштириш, шунингдек, судларда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари учун қулай шарт-шароитлар яратиб беришнинг келгуси йиллардаги устувор мақсадлари белгиланди.

Фармонга кўра эндиликда, суд ишларини юритишда қоғоз шаклидан воз кечиш мақсадида «Рақамли суд» концепцияси асосида ишларнинг юритилишини босқичма-босқич тўлиқ электрон шаклга ўтказилади.

Зарур техник инфратузилма яратилиши ҳамда ушбу йўналишдаги норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш орқали судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича чоралар кўрилади, натижада мурожаатчи судга ариза беришдан олдин сунъий интеллект ёрдамида суд муҳокамасининг тахминий натижаси ҳамда сарфланадиган харажатлар биилиб олиши мумкин бўлади.

Суд ишлари эса замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда тўлиқ электрон тарзда юритилади, сунъий интеллект ёрдамида суд мажлиси баённомалари реал вақт режимида матн шаклида тайёрланади,суд ҳужжатлари лойиҳалари автоматик шакллантирилади.

“Рақамли суд” концепциясини тўлиғича амалга ошириш, аввало бу фуқароларни судларга ҳеч қандай бюрократик тўсиқларсиз мурожаат қилиш имкониятини беради, соҳада қонунийликни таъминлашга ва эҳтимолий коррупциянинг олдини олишга қўшимча кафолатлар яратилади.

Иккинчидан, фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларини суд ишларида онлайн иштирок этиши тарафларга қўшимча афзалликлар яратади. Суд биноларига келиб-кетиш учун оворгарчилик ва сарфланадиган харажатларни камайтиради.

Учинчидан, судлар фаолияти тўғрисида жамоатчиликка ўз вақтида ва объектив ахборот бериш жамиятда ҳуқуқий хабардорлик даражаси ошишига имкон яратади.

Тўртинчидан эса суд ишлари замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда тўлиқ электрон тарзда юритилиши, сунъий интеллект ёрдамида суд мажлиси баённомалари реал вақт режимида матн шаклида тайёрланиши, суд ҳужжатлари лойиҳалари автоматик шакллантирилиши кабилар судларнинг иш фаолиятини енгиллаштиришга хизмат қилади.

Энг муҳими “Рақамли суд” концепциясини тўлақонли амалга ошириш судлов фаолияти устидан жамоатчилик назоратини таъминлаш ва судга нисбатан жамият ишончини оширишнинг самарали воситаси ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, судлар фаолиятида “Рақамли суд” концепциясини жорий этишдан кўзланган асосий мақсад — адолат ва қонун устуворлигини мустаҳкамлаш, халқчил, ихчам, замонавий тизимни шакллантириш орқали жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилиш, низоларни кўриб чиқиш муддатини қисқартириш ҳамда судьянинг иш юкламасини енгиллаштиришдан иборатдир.

АДВОКАТЛИК ТУЗИЛМАЛАРИГА МОЛИЯ МУАССАСАЛАРИ ТОМОНИДАН ТЎЛОВНИ АМАЛГА ОШИРИШ ТАРТИБИ.

Тураев Шахриёр Шодиёрович – Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси Самарқанд вилоят ҳудудий бошқармаси бош бухгалтери. Самарқанд иқтисод ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: Ушбу мақолада адвокатлик тузилмаларида фаолият олиб борувчи адвокатлар томонидан кам таминланган, тўлов қобилияти мавжуд бщлаган мижозларга бепул хуқуқий хизматни амалга оширганда унинг харажатлари қандай усулларда қопланиши кўрсатилинган. Қопланиши лозим тўловларнинг жойлардаги молия бўлимлари томонидан низом ва мийёрий хужжатлар асосида тўланиш йўллари кўрсатилган.

Калит сўзлар: тузилма, давлат хисобидан, молия муассасалари, маблағ, қопланиши, БҲМ, фоиз.

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Жахон тажрибаларидан маълумки хизматлар учун тўланиши лозим маблағ тўғри йўналтирилган бўлишлиги лозим. Хар бир бажарилган иш кўрсатилган хизматларни харажатларини қопланишлиги энг асосий масалалардан бири ҳисобланади. Адвокатлик тузилмаларига бажарилган адвокатлик хизматлари учун гонорар тўловини асосан мижозлар томонидан қопланади. Кам таъминланган адвокатлик хизматларига мухтож мижозларга айрим ҳолларда адвокат томонидан юридик ёрдам кўрсатилганда унинг ўрнини қоплашлик давлат молия бўлимлари томонидан амалга оширилади. Ҳозирда бу тўловларни асосли ва тўғри тўланишлиги ушбу мавзунинг долзарблигдан далолат беради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Мазкур мавзу билан мамлакатимизда ва хорижий давлатларда ҳам олимлар ва амалиётчи ходимлар шуғулланиб келмоқдалар. Булар жумласига Л.Б. Хван, Ф.Ҳ. Отахонов, Ҳ.Б.Бобоев, И.Б.Зокиров, Ў.Х.Мухамедов, З.Муқимов, Х.Т.Одилқориев, О.Оқюлов кабиларни[10] киритиш мумкин. Ушбу олимларнинг асарларида мазкур масала қисман ўрганилган бўлиб, унда юридик хизматларида айнан адвокатлик тузилмаларини муоммолари қараб чиқилган. Ушбу ҳолат ҳам танланган мавзунинг хозирги кунда, ўта долзарб муаммонинг ечимига бағишланганлигидан далолат беради.

Тадқиқот методологияси. Мақолада анализ ва синтез, замон ва макон, мантиқий таҳлил, сабаб ва оқибат, иқтисодий таҳлилнинг анъанавий, тизимли

[10] Хван Л.Б. " Солиқ ҳуқуқи" 2001 й. 430-Б Консаудитинформ нашриёти, Отахонов Ф.Ҳ. "Юридик хизматнинг хўжалик шартномаларини тузиш ва уларнинг ижросини таъминлашдаги роли" Ж.Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2001. – 10-сон. – Б.26-33., Каримов И.А. "Адолат қонун устиворлигида". -Т. "Ўзбекистон". 2001й., Ҳ.Б.Бобоев "Давлат ва хуқуқ назарияси" 2000 й. 523-Б. Тошкент Давлат юридик институти, И.Б.Зокиров "Фукаролик ҳуқуқи" 2009 й. 609-Б. Тошкент Давлат юридик институти, Ў.Х.Мухамедов "Хуқуқшунослик асослари" 2019 й. 348-Б. Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВАкадемияси, 2019, З.Муқимов "Узбекистон давлати ва хуқуқи тарихи" 2003.Тошкент Адолат нашриёти. 280-Б. , Х.Т.Одилқориев "Узбекистонда давлат ва жамият инновацион ривожланишининг хукукий жихатлари" 2019й. Юристлар малакасини ошириш маркази. 307-Б. , О.Оқюлов "Интеллектуал мулк хуқуқи" 2005 й. Фалсафа ва хукук институти Тошкент. 40-Б.,

ёндошув, индукция ва дедукция, иқтисодий математик ва статистик каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Бизга маълумки бажарилган иш ёки хизматнинг ўз қийматига эга ва шунга нисбатан тўланган миқдор бахоси ёки нархи ҳисобланиб, бунда хизматлар ёки товарларга нисбатан кетган мехнат, материаллар, хомашё сарфи аниқланиб, оқибатида бахо ёки нарх келиб чиқади. Хизматлар бахосига қараб унинг фойдаси ёки нафлилик даражаси ҳам аниқланади.

Ҳозирда Республикамизда адвокат томонидан кўрсатилган хизматлар учун фуқаронинг тўлов қобилияти бўлмаса адвокатлик хизмат ҳақини 2024 йилнинг 21 ноябр кунги “Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатадиган адвокатларни жалб этиш ва уларга ҳақ тўлаш тартиби”[11] тўғрисидаги № 774- қарор билан тасдиқланган низомга мувофиқ давлат томонидан ажратиладиган маблағлар ҳисобидан қопланаишлиги кўрсатилиб, низомнинг 5- бобида **“Давлат ҳисобидан кўрсатилган юридик ёрдамни молиялаштириш асослари, миқдорлари ва ҳақ тўлаш тартиби-**деб қўйидаги ҳолатларни кўрсатган;

40. Адвокат томонидан тасдиқловчи ҳужжатлар тегишли адлия бўлимига «Юридик ёрдам» ахборот тизими орқали юборилганлиги кўрсатилган давлат ҳисобидан юридик ёрдамни молиялаштириш учун асос бўлади.

41. Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатаётган адвокат алмаштирилганда ёки давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш тугатилганда ёхуд қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ иш юритиш тўхтатиб турилганда, адвокатга амалда кўрсатилган давлат ҳисобидан юридик ёрдами учун ҳақ тўланади.

42. Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатган адвокатга ушбу Низомга 5-иловага мувофиқ миқдорларда ҳақ тўланади.

43. Икки ва ундан ортиқ шахсларга битта фуқаролик, маъмурий, жиноий ва маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларда, психиатрия ёрдами кўрсатилаётганда, хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқлилиги бузилганлиги бўйича ишларда давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатган адвокатга ҳар бир ишонч билдирувчи (ҳимоя остидаги шахс) учун ушбу Низомга 5-иловада белгиланган миқдорларнинг 80 фоизи миқдорида ҳақ тўланади.

44. Адвокат томонидан давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ бўлган хизмат сафари ва транспорт харажатлари адвокат шартнома тузган жойдан 50 км масофадан узоқ бўлган ҳудудда юридик ёрдам кўрсатилган ҳолларда қопланади.

45. Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг туман (шаҳар) бўлими томонидан унга тасдиқловчи ҳужжатлар келиб тушгандан сўнг ҳар ой якуни бўйича кейинги ойнинг биринчи ўн беш куни давомида давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатган адвокатга у фаолият юритаётган адвокатлик тузилмасининг банк ҳисобварағига пул ўтказиб бериш йўли билан ҳақ тўланади.

46. Агар фуқаролик ишлари бўйича суднинг ҳал қилув қарори давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатилган жисмоний шахснинг фойдасига қабул

[11] “Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатадиган адвокатларни жалб этиш ва уларга ҳақ тўлаш тартиби” тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 21 ноябрдаги 774-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.11.2024 й., 09/24/774/0945-сон

қилинган бўлса, суд иккинчи тарафдан давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ харажатларни қонунчилик ҳужжатларида белгиланган миқдорда ва тартибда Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети фойдасига ундириб олади, иккала тараф Қонунга мувофиқ давлат ҳисобидан юридик ёрдам олиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар деб эътироф этилган ҳоллар бундан мустасно.

Жисмоний шахс давлат ҳисобидан юридик ёрдам олиш ҳуқуқига эга бўлган жисмоний шахслар тоифаларидан бирига кириш мақсадида ёлғон ёки чалғитувчи маълумотлар тақдим этганлиги аниқланган тақдирда, давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ барча харажатларнинг ўрни юридик ёрдам олган жисмоний шахс томонидан қопланишлиги белгиланган.

Ушбу Низомнинг 33-банди ўнинчи хатбошисига мувофиқ давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатишни тугатиш асослари вужудга келганлиги ҳақида давлат ҳисобидан юридик ёрдам олувчи шахс ёки психиатрия муассасаси томонидан адлия бўлимига хабар берилмаган тақдирда, давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ харажатларнинг ўрни тегишлича давлат ҳисобидан юридик ёрдам олувчи шахс ёки психиатрия муассасаси томонидан қопланади.

Адвокат давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатилганлиги тўғрисида ёлғон ёки нотўғри маълумотлар тақдим этганлиги аниқланган тақдирда, давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ харажатларнинг ўрни адвокат томонидан қопланади.

Ушбу бандниг иккинчи ва тўртинчи хатбошиларида назарда тутилган шахслар томонидан давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ харажатларнинг ўрнини ихтиёрий равишда қоплаш рад этилган тақдирда, бундай харажатлар суд тартибида ундирилади.”-деб Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатадиган адвокатларни жалб этиш ва уларга ҳақ тўлаш тартиби тўғрисидаги Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 21 ноябрдаги 774-сон қарорида кўрсатилган.

1.- жадвал.

Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатган адвокат учун тўланадиган ҳақ миқдорлари. (БҲМ га нисбатан, низомнинг 5- иловаси)

Т/р	**Амалга оширилган ҳаракат номи**	**Амалга оширилган вақти**	**Ҳақ миқдори** *(базавий ҳисоблаш миқдорига нисбатан)*
1.	Терговга қадар текширув, суриштирув, тергов жараёнида, судда кўрилаётган ишларда ва психиатрия ёрдами кўрсатилаётганда юридик ёрдам кўрсатилган ҳар бир кун учун	Кун давомида	50 фоиз
		Тунги вақтларда	75 фоиз
		Дам олиш ва байрам	100 фоиз

		(ишланмайдиган) кунлари	
2.	Гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчи томонидан ҳимоячидан воз кечиш билан боғлиқ процессуал ҳаракатларда иштирок этганлиги учун *(ҳар бир процессуал ҳаракат учун алоҳида ҳисобланади)*	Кун давомида	30 фоиз
		Тунги вақтларда	45 фоиз
		Дам олиш ва байрам (ишланмайдиган) кунлари	70 фоиз
3.	Судга ариза ва шикоятлар киритганлик учун	Амалга оширилган вақтдан қатъи назар	20 фоиз
4.	Хизмат сафари ва транспорт харажатлари учун *(юридик ёрдам кўрсатилган ҳар бир кун учун ҳисобланади)*	Амалга оширилган вақтдан қатъи назар	25 фоиз

Бу жадвалда адвокатлик хизматини бажарган адвокат учун унинг хизмат турларига қараб унга давлат томонидан хар бир бажарган ишига ҳақ тўланиши БҲМ га нисбатан кўрсатилган. Шунинг билан бирга адвокатлик хизмати (юридик ёрдам)ни амалга оширишда иш куни бўлмаган кунларда ва кетган сарф харажатларни хисобга олган холда адвокатнинг хизматига давлат томонидан ҳақ тўланишлиги кўрсатилган.

Адвокатларнинг умумий топширган адвокатлик хизматлари учун тўловлар унга нисбатан давлат томонидан ҳақ тўлаш эвазига бажарилган адвокатлик хизмати ва мижозлар томонидан тўланган маблағларни биз тадқиқот утказаётган Самарқанд шахар "Самарканд Конун Устуворлиги" адвокатлар хайъати, Жомбой туман "Жомбой химоя" адвокатлик фирмаси, Ургут туман "Шомуродова Х.Р." адвокатлик бюроларида таҳлил қилниб жадвал асосида ишлаб чиқилди.


2.-жадвал.

Адвокатлик хизматидан тушган маблағларни мижозлар ва давлат томонидан тўланишини фарқ ифодаси.


Т/Р	ЙИЛЛАР КЕСИМИДА	АДВОКАТЛИК ИШЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ		Жами ишлар учун туланган маблағлар миқдори	Давлат томонидан тўланган миқдор жамига нисбатан фоиз кўринишди
		Адвокатлик хизмати учун мижозлар томонидан тўланган миқдор	Адвокатлик хизмати учун давлат томонидан ажратилган миқдор		
1	"Самарканд Конун Устуворлиги" адвокатлар хайъати				

	2022 йил	355561	198816	554377	36
	2023 йил	502083	121422	623505	19
	2024 йил	595706	142751	738457	19
2	"Жомбой химоя" адвокатлик фирмаси				
	2022 йил	49616	14505	64121	23
	2023 йил	52290	14110	66400	21
	2024 йил	84170	22435	106605	21
3	"Шомуродова Х.Р." адвокатлик бюроси				
	2022 йил	26390	405	26795	2
	2023 йил	62202	1245	63447	2
	2024 йил	120080	340	120420	0,3


Бу жадвалда адвокатлар томонидан бажарилган хизматларнинг умумий суммасидан "Самарканд Конун Устуворлиги" адвокатлар хайъати хисобварағига жами тўловдан 2022 йил 36%, 2023 йил 19%, 2024 йил 19% , "Жомбой химоя" адвокатлик фирмаси хисобварағига жами тўловдан 2022 йил 23%, 2023 йил 21%, 2024 йил 21% , "Шомуродова Х.Р." адвокатлик бюроси хисобварағига жами тўловлардан 2022 йил 2%, 2023 йил 2%, 2024 йил 0,3% давлат ҳисобидан бажарилган адвокатлик хизматлари эвазига ажратилган маблағларни ташкил қилади.



1.- расм. **"Самарканд Конун Устуворлиги" адвокатлар хайъати адвокатлик хизматидан тушган маблағларни мижозлар ва давлат томонидан тўланиши фарқини график ифодаси.**



2.- расм. **"Жомбой химоя" адвокатлик фирмаси адвокатлик хизматидан тушган маблағларни мижозлар ва давлат томонидан тўланиши фарқини график ифодаси.**



3.- расм. **"Шомуродова Х.Р." адвокатлик бюроси адвокатлик хизматидан тушган маблағларни мижозлар ва давлат томонидан тўланиши фарқини график ифодаси.**

1.- расмда "Самарканд Конун Устуворлиги" адвокатлар хайъати, 2.- расмда "Жомбой химоя" адвокатлик фирмаси, 3.- расмда "Шомуродова Х.Р." адвокатлик бюросиларига мижозлар ва давлат томонидан адвокатлик хизматидан тўловлар фарқининг жамига нисбатан қанчани ташкил этишининг ўсиш график ифодаси кўрсатилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 январида “Юридик хизмат фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2733-сонли Қарори.

2.Хван Л.Б. “Солиқ ҳуқуқи” Консаудитинформ нашриёти,2001 й. 430-Б,

3.Қ.Ж.Мирзаев, Т.С.Шарипов, Ш.А.Султонов, Ғ.С.Мустафоев, Э.С.

4.Файзиев. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик - Самарқанд: «FAN BULOG'I» нашриёти, 2022, 252 бет.

5.Б.Уразов, С.В.Вахидов. БОШҚА ТАРМОҚЛАРДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИК. Дарслик, 2010 – 445 б.

6.Отахонов Ф.Ҳ. “Юридик хизматнинг хўжалик шартномаларини тузиш ва уларнинг ижросини таъминлашдаги роли” Ж.Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2001. – 10-сон. – Б.26-33.,

7.Мухамедов Ў.Х. “Ҳуқуқшунослик асослари”. Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 2019 й. 348-Б.

Тураев Шахриёр Шодиёрович - Главный бухгалтер Самаркандского областного управления Палаты адвокатов Республики Узбекистан. Независимый исследователь.

Аннотация: В статье описываются методы, с помощью которых юристы, работающие в адвокатских структурах, возмещают расходы на оказание бесплатных юридических услуг малообеспеченным, трудоспособным клиентам. Указываются методы уплаты обязательных платежей местными финансовыми органами на основании нормативных актов и нормативных документов.

Ключевые слова: структура, за счет государства, финансовые учреждения, средства, возмещение, МНП, проценты.

Turaev Shakhriyor Shodiyorovich - Chief Accountant of the Samarkand Regional Office of the Chamber of Advocates of the Republic of Uzbekistan. Independent researcher.

Abstract: The article describes the methods by which lawyers working in advocacy structures reimburse the costs of providing free legal services to low-income, able-bodied clients. The methods of paying mandatory payments by local financial authorities on the basis of regulatory acts and regulatory documents are indicated.

Key words: structure, at the expense of the state, financial institutions, funds, compensation, MNP, interest.

TÜRKÇEDE FIILLER: AKADEMIK BIR İNCELEME

Xojiyeva Muxlisa Abdumansur qizi
Alfraganus Üniversitesi 3. sınıf öğrencisi.
email: muxlisaxojiyeva26@gmail.com
Bilimsel danışman: Ulug`berdi Pardayev

Anotasyon: Bu makale, Türkçede fiillerin biçimbilimsel (morfolojik), sözdizimsel ve anlambilimsel (semantik) özelliklerini sistematik olarak ele alır. Türkçe, eklemeli (agglutinatif) bir dil olması nedeniyle fiiller zengin bir çekim ve türetme sistemi sergiler; bu durum hem sözcük yapısını hem de cümle içi görev dağılımını doğrudan etkiler. Çalışma, fiillerin sınıflandırılması, çekim kategorileri (zaman, kip, şahıs), çatı ve geçişlilik, fiil türevleri (yapım ekleri) ile fiilimsilerin (isim-fiiller, sıfat-fiiller, zarf-fiiller) işlevlerine odaklanır; son olarak tarihsel değişimler ve öğretimsel çıkarımlar kısaca tartışılır.

Annotation: This study systematically examines the morphological, syntactic, and semantic properties of verbs in Turkish. As an agglutinative language, Turkish exhibits a rich system of inflection and derivation, which directly influences both word structure and the distribution of syntactic functions within a sentence. The study focuses on the classification of verbs, inflectional categories (tense, mood, person), voice and transitivity, derived verb forms (through derivational suffixes), and the functions of verbal nouns, participles, and adverbial verbs. Finally, the paper briefly discusses historical developments and pedagogical implications.

Anahtar kelimelar: Fiil, çekim, yapım eki, çatı, fiilimsiler, sözdizim

Fiiller, bir dilin etkinlik, oluş ve durum bildiren çekirdek öğeleridir. Türkçede fiiller, kök/gövde + çok sayıda çekim ve yapım eki diziliminden oluşur; bu yapı, anlamın yapılandırılmasında ve sözdizimsel ilişkilerin kurulmasında merkezi rol oynar. Bu makalenin amacı, Türkçe fiil sisteminin temel bileşenlerini derleyerek hem teorik dilbilimsel çerçeveye hem de uygulamalı dil eğitimi bağlamına katkıda bulunmaktır.

2. Fiillerin sınıflandırılması

2.1 Anlama göre sınıflama

Fiiller genellikle üç anlam sınıfına ayrılır:

İş/eylem fiilleri: Bilinçli bir eylemi ifade eder (yazmak, koşmak, söylemek).

Durum fiilleri: Süreklilik veya konum bildirir (oturmak, durmak).

Oluş fiilleri: Kendiliğinden meydana gelen değişimi gösterir (büyümek, erimek).

2.2 Yapıya göre sınıflama

Basit fiiller: Gövdesinde yapım eki bulunmayan fiillerdir (gel-, git-).

Türemiş fiiller: Yapım ekleriyle yeni anlamlar edinen fiillerdir (oku- → okut-, yaz- → yazdır-).

Bileşik fiiller: İsim veya sıfat kökleriyle yardımcı fiillerin birleşmesiyle oluşan yapılar (yardım etmek, karar vermek).

3. Morfoloji: Çekim ve yapım ekleri

3.1 Çekim kategorileri

Türkçede fiil çekimi başlıca şu kategorileri kapsar: zaman (geçmiş, geniş/aorist, şimdiki, gelecek), kip (haber, dilek, gereklilik, şart), şahıs ve olumsuzluk. Örnek olarak kök yaz- paradigması: yazıyorum (şimdiki, 1. tekil), yazdım (geçmiş, 1. tekil), yazacak (gelecek), yazar (geniş/aorist), yazmalı (gereklilik).

3.2 Yapım ekleri ve türetme

Yapım ekleri fiillere yeni biçimler ve anlamlar kazandırır:

Ettirgen / yaptırma (kılış) ekleri: -dır, -dır- (örn. yaz- → yazdır-).

Edilgen (pasif) ekleri: -il, -in (örn. yaz- → yazıl-).

Dönüşlülük: -n- (örn. yıkamak → yıkanmak).

Kısaltmalı türetmeler ve ses değişimleri morfolojik süreçlerle birlikte görülür.

4. Çatı, geçişlilik ve valans

Fiilin çatı özellikleri (etken, edilgen, dönüşlü, işteş) özne–nesne ilişkisini belirler. Geçişli fiiller nesne alırken (okumak, yazmak), geçişsiz fiiller nesne almayabilir (uyumak, gitmek). Yapım ve çekim ekleri fiilin valansını değiştirebilir; örneğin ettirgen yapı X'in Y'yi yaptırması anlamını verirken, edilgen yapı eylemin failini geri planda bırakır.

5. Fiilimsiler (verbal non-finites)

Türkçede fiil köklerinden türeyen üç ana fiilimsi türü vardır:

İsim-fiiller (-ma/-me, -mak/-mek): Cümlede isim görevinde kullanılır (yürümek sağlıklıdır, okumayı seviyorum).

Sıfat-fiiller (-an/-en, -ası, -mez): İsimleri niteleyen yapılar (gören, yazılmış kitap).

Zarf-fiiller (-ken, -ınca/-ince, -ıp/-ip): Fiil durumlarını bağlayan bağlaçsı yapılar (geldiğinde, yapıp gitti).

Fiilimsiler cümle ekonomisini sağlar ve alt cümle işlevi görebilir.

6. Sözdizim ve anlambilim ilişkisi

Fiilden türeyen formlar, söz diziminde yüklemin etrafında kümelenmiş ögelerin yapılandırılmasına katkıda bulunur. Türkçede özne-yüklem uyumu şahıs ekleriyle sağlanır; bunun yanında zaman ve kip ekleri cümlenin illoküsyonel (konuşma eylemiyle ilgili) bileşenlerini belirler. Anlam açısından modalite (gereklilik, olanak, istem), fiil çekimleri aracılığıyla morfolojik düzeyde ifade edilir.

7. Tarihsel boyut ve dil değişimi (kısa not)

Türkçede fiil yapıları tarihsel süreç içinde ses değişimleri, yabancı dillerden alıntılar ve gramerleşme süreçleriyle evrilmiştir. Özellikle yapım ve çekim eklerinin bazı fonksiyonları zaman içinde kayma göstermiş, perifrastik (yardımcı fiilli) yapılar artış göstermiştir.

8. Öğretimsel çıkarımlar

Fiil çekim ve türetme sisteminin öğretiminde aşamalı yaklaşımlar uygundur: önce temel fiil kökleri ve kişi-zaman çekimleri, ardından yapım ekleri ve fiilimsiler; son olarak çatı ve valans değişimleri öğretilmelidir. Ayrıca örnek temellendirme ve karşılaştırmalı morfolojik analizler öğrencilerin genelleştirme yeteneğini artırır.

9. Sonuç

Türkçede fiiller, hem biçimbilimsel açıdan zengin bir türetme/çekim sistemi hem de sözdizimsel açıdan belirleyici bir işlevsellik sergiler. Fiillerin yapı ve işlevlerini bütünsel biçimde ele almak, dil teorisi açısından olduğu kadar dil öğretimi açısından da önemli

sonuçlar üretir. Gelecek çalışmalar özellikle perifrastik yapıların artışı, fiilimsi kullanımının pragmatik boyutları ve diachronic evrim üzerinde yoğunlaşabilir.

KAYNAKÇA

1. Banguoğlu, T. (2004). Türkçenin Grameri. Türk Dil Kurumu Yayınları.
2. Ergin, M. (2013). Türk Dil Bilgisi. İstanbul: BayrakYayınları.
3. Göksel, A., & Kerslake, C. (2005). Turkish: A Comprehensive Grammar. London: Routledge.
4. Korkmaz, Z. (2009). Türkiye Türkçesi Grameri: Şekil Bilgisi. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
5. Gencan, T. N. (2001). Dilbilgisi. Ankara: Ayraç Yayınları.

Xalqaro huquqda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya yo`nalishi 248-guruh talabasi **Tajibayeva Laylo Ulug'bek qizi**

Annotatsiya:

Maqolada inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish tizimi, uning shakillanish jarayoni hamda amaldagi mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilingan.Birlashgan Millatlar Tashkiloti va mintaqaviy tashkilotlar doirasida faoliyat yuritayotgan shartnoma organlari, inson huquqlari sudlarining huquqiy ahamiyati yoritilgan.Shuningdek,maqolada inson huquqlarini xalqaro himoya qilish tizimida mavjud muammolar, ularning amaliy natijalari hamda samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.Maqola inson huquqlari himoyasining global va milliy darajadagi dolzarb masalalarini tahlil etish bilan bir qatorda, amaliy yechimlarni ham taflif etadi.

Kalit so'zlar: Fuqarolarning huquq va erkinliklari, xalqaro huquq, xalqaro andoza, milliy qonunchilik, BMT, konvensiya, sud mustaqilligi, monitoring mexanizimi, implementatsiya.

Аннотация: В статье анализируется система международной защиты прав человека, процесс ее формирования и еффекттивность существующих механизмов. Раскрывается правовое значение договорных органов и судов по правам человека, действующих в рамках Организаций Обьединенных Наций и регионалых организаций.Также рассматриваются существующие праблемы в системе международной защиты прав человека их практические результаты и пути повышения еффективности. Анализируются актуальные вопросы защиты прав человека на глабальном и национальном уровнях, а также предлагаются практические решения.

Ключевые слова: Права человека, международное права, международные стандарты, национальный суверенитет, ООН, конвенция, независимость государства, механизм мониторинга, реализация.

Abstract: The article analyzes the system of international human rights protection, the process of its formation and the effectiveness of existing mechanisms.The legal significance of treaty bodies and human right courts operating within the United Nations and regional organizations is highlighted.The article also examines the exisiting problems

in the system of international human rights protection, their practical results and ways to increase efficiency. The article analyzes current issues of human rights protection at the global and national levels, as well as proposes practical solutions.

Keywords: Human right, international law, international standards, national sovereignty, UN, convention, independence of the state, monitoring, mechanism, implementation.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy,siyosiy va ma’naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib,ushbu jamiyatning demokratik taraqqiyot darajasini ko’rsatuvchi asosiy me’zon, davlatning insoniyligini belgilovchi barometr bo’lib hisoblanadi.

Bugungi kunda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy ma’nfaatlarini himoya qilish global miqiyosdagi masalardan biriga aylandi.Xalqaro huquq bu borada muhim ro’l o’ynaydi, chunki u inson huquqlarini universal standartlar asosida tan olish va himoya qilishga qaratilgan.Inson huquqi bo’yicha xalqaro andozalar inson huquqini xalqaro va milliy darajada himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi.Xalqaro huquqning asosiy maqsadi-barcha insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning kamsitilishiga yo’l qo’ymaslik va ularning qadr-qimmatini hurmat qilishdan iborat.Ushbu maqolada inson huquqlarini xalqaro huquq sohasidagi o’rni, himoya qilish mexanizmlari, asosiy tamoyillari va yutuqlari, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo’llari yoritiladi.

Inson huquqlari sohasida xalqaro huquq bir qator muhim vazifalarni bajaradi.

1.Universal standartlarni belgilash: Xususan, xalqaro huquq, inson huquqlari to’g’risidagi xalqaro shartnomalar orqali inson huquq va erkinliklarining universal standartlarini belgilab beradi.Bu standartlar barcha davlatlar uchun majburiy bo’lib, ularning ichki qonunchiligida aks ettirilishi kerak.

2.Davlatlar o’rtasida hamkorlikni ta’minlash: xalqaro huquq davlatlar o’rtasida inson huquqlarini himoya qilish borasida hamkorlikni ta’minlaydi.Davlatlar o’z hududlarida inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek, boshqa davlatlarning inson huquqlarini buzishiga yo’l qo’ymaslikka majbur.

3.Nazorat va monitoring mexanizmlarini yaratish.Xalqaro huquq inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan nazorat va monitoring olib boorish uchun turli mexanizmlarni yoritadi.Bu mexanizmlar inson huquqlari bo’yicha xalqaro tashkilotlar va boshqa tuzilmalarni o’z ichiga oladi.

4.Odillik va javobgarlikni ta’minlash: Xalqaro huquq inson huquqlarini buzgan davlatlar va shaxslarning javobgarligini ta’minlaydi.Bu javobgarlik xaqlqaro sudlar va tribunallar orqali amalga oshiriladi.

Inson huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro huquqda bir qator mexanizlar mavjud.

1.Xalqaro shartnomar va konvensiyalar: Birlashgan MillatlarTashkilot

va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan inson huquqlari to’g’risidagi xalqaro shartnomalar va konvensiyalar inson huquqlarini asosiy manbai hisoblanadi. Bularga, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi Xalqaro Pakt; Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlat to’g’risidagi Xalqaro Pakt; Ayollar huquqlarini to’g’risidagi konvensiya; Bolalar huquqlari to’g’risidagi konvensiya va boshqa ko’plab shartnomlar kiradi.

2.Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo’yicha organlari:

Birlashgan Millatlar Tashkilot tarkibida inson huquqlarini himoya qilish va nazorat qilish bilan shug’illanadigan bir qator organlar mavjud.Bularga Inson Huquqlari Kengashi, Inson huquqlari bo’yicha oliy komissari boshqarmasi va shartnomaviy organlar kiradi.

3.Mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari: Yevropa Inson Huquqlari Sudi, Amerika Inson Huquqlari Sudi, Afrika Inson Huquqlari Sudi kabi mintaqaviy sudlar inson huquqlarini himoya qilishda muhim ro’l o’ynaydi.Bu sudlar o’z mitaqalari doirasida inson huquqlari buzilgan holatlarni ko’rib chiqadi va tegishli qarorlar chiqaradi.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq bir qator tamoyillarga asoslanadi:

-Inson huquqlarining universalligi;
-Inson huquqlarining ajralmasligi ;
-Inson huquqlarining o’zaro bog’liqligi:
-Kamsitishga yo’l qo’ymaslik;
-javobgarlik.

Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlarining samaradorligino oshirish murakkab masala bo’lib, bir qancha omillarga bog’liq. Ushbu mexanizmlar, jumladan, xalqaro shartnomalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining huquqni himoya qiluvchi institutlari va xalqaro sudlar samarali natijalar berishi mumkin. Biroq, ularning samaradorligi siyosiy irodaning yetishmasligi, davlatlarning o’z majburiyatlaridan voz kechishi va amaliy yordamning noaniqligi kabi omillar tufayli cheklangan. Shuning uchun mexanizmlarning samaradorligini baholashda ularning kuchli va zaif tomonlarini ham inobatga olish kerak.

Kuchli tomonlari:

-Xalqaro standartlar:Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalar huquqiy asos yaratadi va davlatlarni o'z majburyatlariga rioya qilishga undaydi.

-Monitoring va hisobot berish: Inson huquqlari bo'yicha kengashiga o'xshash intitutlar, davlatlar tomonidan inson huquqlari ahvolini monitoring qilish va hisobot berishni tashkil qiladi.

-Xalqaro sudlar: Xalqaro jinoiy sud va boshqa xalqaro sudlar inson huquqlari buzilishlarida aybdor bo'lgan shaxslarni jazolash orqali huquq himoyasiga yordam beradi.

Zaif tomonlari:

-Siyosiy irodaning yetishmasligi: Ba'zi davlatlar inson huquqlarini himoya qilishda siyosiy irodani namoyish etmaydi va bu mexanizmlarning samaradorligini cheklaydi.

-Amaliy yordamning noaniqligi: Ayrim hollarda inson huquqlari buzilishlariga qarshi kurashish uchun zarur amaliy yordam ta'minlamaydi.

-Amalga oshirishdagi qiyinchiliklar:Ayrim davlatlar xalqaro standartlarga rioya qilmaydiva o'z majburiyatlaridan voz kechadi, bu xalqaro mexanizmlarning samaradorligini pasaytiradi.

-Moliyaviy va resurs cheklovlari: Xalqaro inson huquqlari himoyachilari va tashkilotlari ko'pincha moliyaviy cheklovlar va resurslar yetishmasligi muammolari bilan duch kelishadi.

Samaradorlikni oshirish yo'llari.

Inson huquqlarini xalqaro miqiyosda himoya qilish tizimi takomillashib borayotgan bo'lsa-da, uni yanada kuchaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

1.Davlatlarning xalqaro majburyatlarni to'liq bajarishni ta'minlash.

2.Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish.

3.Fuqarolik jamiyatining faolligini oshirish, nodavlat tashkilotlar ro'lini kuchaytirish.

4.Sud mustaqilligini kafolatlash va adolatli sudlov tizimini rivojlantirish.

5.Inson huquqlari sohasida ta'lim va ma'rifatni keng yoyish.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan va 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida asosiy masala inson huquqlarini kafolatlashda xalqaro huquq normalari bilan uyg’unlashganini ko’rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari adolat va tinchlikni ta’minlashda muhim hisoblanadi.

Ular inson sha’nini himoya qilish, davlatlarning javobgarligini oshirish va huquq ustuvorligini qaror toptirishga xizmat qiladi.Biroq ularning to’liq samaradorligi davlatlarning siyosiy irodasi, xalqaro hamkorlik darajasi va milliy institutlarning mustahkamligiga bevosita bog’liqdir.

Shu sababli, inson huquqlarining xalqaro himoyasini yanada kuchaytirish nafaqat xalqaro tashkilotlar, balki, har bir davlat va fuqaroning umumiy mas’uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomi 1945.
2. Fuqaroviy va Siyosiy Huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt 16.12.1996.
3. Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt 16.12.1996
4. Ayollar huquqlari to’g’risida konvensiya 18.12.1979
5. Bola huquqlari to’g’risida konvensiya 20.11.1989
6. O’zbekiston Respublikasi Kinstitutsiyasi 30.04.2023
7. Inson huquqi.Darslik. T: 2021

Physiology of the central nervous system

Abdulloyeva Mohinur - Samarkand district secondary school 43

Abstract. The central nervous system (CNS) is the highest regulator of the body's vital functions. It integrates sensory information, controls motor activity, regulates internal organs, and performs higher mental functions. This article examines the fundamental physiological principles of CNS function, including neuronal structure, excitation conduction, synaptic transmission, and the functioning of the spinal cord, brainstem, cerebellum, and cerebral cortex. Particular attention is paid to the mechanisms of reflex activity and neuroplasticity.

Keywords: CNS, neuron, synapse, brain, reflex, neurotransmission, cortex, excitation.

Introduction. The central nervous system (CNS) is the central link in the regulation and coordination of all vital processes in the human body. It is a highly organized biological structure comprising the brain and spinal cord, billions of neurons, and trillions of synaptic connections. Thanks to the functioning of the central nervous system, a person is able to perceive and analyze information from the environment, respond to stimuli, control voluntary and involuntary movements, and develop higher mental functions such as consciousness, thinking, speech, memory, and emotions.

From a physiological perspective, the central nervous system integrates the activity of all organs and systems. It receives and processes signals from receptors, generates responses, and regulates homeostasis—the body's internal stability despite changes in external conditions. The central nervous system not only responds to stimuli but also actively anticipates possible scenarios, adapting an individual's behavior to enhance survival and the effectiveness of interactions with the external environment.

At the cellular level, the central nervous system consists of specialized nerve cells—neurons—and support cells—neuroglia. The primary function of neurons is to conduct nerve impulses and participate in synaptic transmission, while glial cells provide support, nutrition, protection, and regulation of the environment necessary for neuronal function. The complex connections between billions of these cells form a dynamic network capable of learning, adapting, and recovering from injury.

Modern CNS physiology actively studies the mechanisms of nerve impulse generation and conduction, the principles of synaptic transmission, the functional organization of various brain regions, and the mechanisms of interstructural interactions. Much attention is paid to the study of neuroplasticity—the brain's ability to change under the influence of experience, which underlies learning, memory, and functional recovery after injury.

Thus, the central nervous system is not only the anatomical and physiological control center of the body, but also the foundation of individuality, consciousness, and cognition of the surrounding world. Understanding its functions is key to medicine, psychology, neuroscience, and a number of related disciplines aimed at maintaining and restoring human health.

Neurons and neuroglia: the cellular basis of the CNS. The central nervous system is composed of two main cell types—neurons and neuroglia—each performing unique but closely interconnected functions that support the complex functioning of the brain and spinal cord. Neurons are the basic structural and functional units of the nervous system. They are specialized cells capable of excitation and transmission of electrical signals—nerve impulses. Each neuron consists of a cell body (soma), containing a nucleus and organelles; dendrites, which receive signals from other cells; and an axon, along which the impulse is transmitted. At the end of the axon are synapses—structures that facilitate chemical transmission of signals to other neurons, muscles, or glands.

Neurons are classified by the functions they perform: Afferent (sensory) neurons transmit information from receptors to the central nervous system. Efferent (motor) neurons direct impulses from the central nervous system to the effector organs—muscles and glands. Interneurons (association) neurons communicate between afferent and efferent neurons and form complex neural networks within the brain and spinal cord. Although neurons make up a minority of the central nervous system's cell population, they are responsible for information transmission, signal processing, and the implementation of all higher brain functions.

Neuroglia are support cells that significantly outnumber neurons. Their role cannot be underestimated: they provide structural and metabolic support for neurons, participate in maintaining ionic balance, form the myelin sheath, regulate synaptic transmission, participate in the brain's immune responses, and even in learning and memory processes.

The main types of glial cells include: Astrocytes, which perform barrier, trophic, and regulatory functions. They participate in the formation of the blood-brain barrier, regulate blood flow in the brain, and utilize excess neurotransmitters and ions, promoting homeostasis of the nervous tissue. Oligodendrocytes, which form the myelin sheath around axons in the central nervous system, ensure rapid and efficient conduction of nerve impulses. Microglia, which perform a protective function, act as macrophages in the central nervous system. These cells actively participate in the removal of damaged cells and pathogens, as well as in the modulation of inflammatory processes.

Thus, neurons and glial cells form a tightly integrated and interdependent system. Without neurons, information transmission and processing are impossible, but without neuroglia, neurons would not function properly and would be subject to rapid degradation and loss of viability. The coordinated work of these cells underlies the diverse functions of the central nervous system.

Nerve impulse transmission and synapses. Information transmission in the central nervous system is accomplished through electrochemical processes occurring in neurons. These processes are based on changes in membrane potential associated with the movement of ions across the cell membrane.

Resting membrane potential. At rest, the neuron membrane has a potential difference between the inner and outer surfaces of approximately -70 mV. This membrane potential is created and maintained by the uneven distribution of sodium (Na^+), potassium (K^+), chloride (Cl^-), and other ions.

The sodium-potassium pump (Na^+/K^+-ATPase) plays a key role, actively pumping 3 sodium ions out of the cell and 2 potassium ions into the cell, consuming ATP energy.

As a result, the inner membrane remains negatively charged compared to the outer membrane.

Action potential generation and conduction. When a neuron receives an excitatory signal, the membrane depolarizes: sodium channels open, and Na^+ ions rapidly rush into the cell, reducing the negative charge. If depolarization reaches a threshold (approximately –55 mV), an action potential is generated—a short and sharp change in membrane potential. Potassium channels then open, and K^+ ions exit the cell, causing repolarization and restoration of the initial state. This process lasts milliseconds but ensures signal transmission along the axon over long distances.

Impulse conduction along the axon can be: Continuous—in unmyelinated fibers; Saltatory (jumping)—in myelinated axons, where the impulse "jumps" from one node of Ranvier to another, significantly accelerating the transmission speed (up to 120 m/s).

Synapses: Structure and Function. A signal from one neuron to another is transmitted through a synapse—a specialized junction between the presynaptic neuron and the postsynaptic cell (another neuron, muscle, or gland).

The synapse consists of: a presynaptic membrane; a synaptic cleft (20–30 nm); and a postsynaptic membrane containing receptors.

When an action potential arrives at the presynaptic terminal, calcium channels open, and Ca^{2+} ions stimulate the release of neurotransmitters from vesicles into the synaptic cleft. Neurotransmitters (e.g., acetylcholine, glutamate, dopamine, serotonin, GABA) bind to receptors on the postsynaptic membrane, causing either depolarization (excitatory effect) or hyperpolarization (inhibitory effect).

Synaptic plasticity. Synapses have a unique capacity for plasticity—changing the efficiency of signal transmission in response to experience, learning, or injury. Synaptic plasticity underlies memory, learning, and adaptation. The most well-known forms of synaptic plasticity are long-term potentiation (LTP) and long-term depression (LTD), which alter the strength of synaptic transmission over long periods of time.

Synapses play a key role in neurophysiology, connecting all parts of the nervous system into a single information network. They facilitate signal integration, cellular decision-making, and the fine-grained regulation of all bodily functions.

Structure and Functions of the Central Nervous System. The central nervous system (CNS) consists of the spinal cord and brain, each of which performs specific functions in the coordination, regulation, and integration of all processes occurring in the body. Each part has a complex structure and interacts with other levels of neural regulation, ensuring homeostasis, adaptation, and voluntary and involuntary actions.

Spinal cord. The spinal cord is an elongated tubular structure located within the spinal canal. It consists of gray matter (inside, shaped like a butterfly) and white matter (outside), containing conduction pathways. The spinal cord is segmented—it has 31 segments, each of which gives rise to a pair of spinal nerves innervating a specific area of the body.

Main functions: Conductive—transmitting sensory information from the periphery to the brain and motor signals from the brain to the organs. Reflexive—providing simple automatic reactions, such as the knee jerk, pulling a hand away from a hot object, urination,

and defecation. These reflexes are mediated by reflex arcs that do not require conscious involvement.

Brainstem. The brainstem includes three main parts: the medulla oblongata, the pons, and the midbrain. These are the oldest parts of the brain, maintaining the basic functions of life.

Functions: Vital centers: The medulla oblongata contains the centers for respiration, cardiac activity, blood pressure regulation, as well as the center for vomiting, swallowing, and coughing. Conduction function: The brainstem connects the spinal cord with the higher parts of the brain, conducting sensory and motor impulses. Cranial nerve nuclei: The brainstem contains the nuclei of cranial nerves III through XII, which control eye movement, facial expressions, swallowing, and other functions. Regulation of wakefulness and sleep: Part of the reticular formation of the brainstem is involved in maintaining consciousness, attention, and sleep.

Cerebellum. The cerebellum is a structure located in the posterior cranial fossa, with a characteristic sulcal surface and two hemispheres.

Functions: Motor coordination: The cerebellum integrates signals from the cerebral cortex, vestibular apparatus, and proprioceptors to ensure smooth and precise movements. Balance control ensures stable body posture and gait. Muscle tone regulation helps maintain a constant level of muscle tension. Motor skill learning plays an important role in the automation of movements (e.g., riding a bicycle, playing a musical instrument).

Damage to the cerebellum causes ataxia—impaired motor coordination, unsteadiness of gait, and tremors of the limbs during purposeful movements.

Hypothalamus and thalamus. These structures form the diencephalon and play a key role in regulating homeostasis and integrating sensory information. The thalamus is a large, paired structure that functions as a sensory relay center: all sensory information (vision, hearing, touch, pain impulses) passes through the thalamus, where it is processed and sent to the appropriate areas of the cerebral cortex.

The hypothalamus is the main coordinating center of the autonomic nervous and endocrine systems. It regulates: body temperature; hunger and thirst; sexual behavior; Circadian rhythms (sleep-wake); emotional reactions (interaction with the limbic system); production of pituitary hormones (via hormone-releasing factors).

The hypothalamus is vital for the body's adaptation to internal and external changes.

The cerebral cortex. The cortex is the highest level of organization of the central nervous system, consisting of six layers of neurons that perform complex cognitive, sensory, and motor functions. The cortex is divided into four main lobes:

Frontal lobe: responsible for planning, speech (Broca's area), voluntary movements, behavioral control, and decision-making. Parietal lobe: processes information from cutaneous receptors and muscles, and is involved in spatial orientation. Temporal lobe: enables sound perception, speech comprehension (Wernicke's area), and is involved in memory and emotional processing. Occipital lobe: responsible for processing visual information.

The interconnections between the cortex's regions support higher nervous system functions: learning, consciousness, motivation, and self-awareness. Neuroplasticity—the

brain's ability to change its structure and functional connections—is particularly pronounced in childhood but persists throughout life.

Principles of the CNS: Reflex Arc and Plasticity. The CNS operates on the principle of reflex activity—the body's response to stimulation.

A classic reflex arc includes: Receptor; Afferent neuron; Central integrating element; Efferent neuron; Efferent neuron (muscle or gland).

Neuroplasticity—the ability of the nervous system to restructure itself—underlies recovery from injury, learning, and the formation of new skills. The development of synapses, the formation of new axons, and the influence of environmental factors (experience, training, stimulation) contribute to CNS adaptation.

Conclusion. The physiology of the central nervous system reveals the subtle mechanisms that govern all bodily functions. Understanding the structure and functions of the central nervous system is important not only for medicine and biology, but also for psychology, pedagogy, and neuroscience. Modern research in neurophysiology opens up new perspectives in the treatment of diseases, patient rehabilitation, and the creation of brain-computer interfaces. The central nervous system is a remarkable and dynamic control center that ensures the integrity of the human personality and its interaction with the outside world.

References

1. Gilyarov, A. Yu., Physiology of the Human Nervous System. Moscow: Meditsina, 2020.
2. Schmidt, R. F., Theodorsen, D., Human Physiology. St. Petersburg: Lan, 2021.
3. Kandel, E., Schwartz, J., Principles of Neuroscience. Moscow: Nauka, 2020.
4. Medvedev, V. V., Fundamentals of Neurophysiology. Moscow: GEOTAR-Media, 2019.
5. Purves, D. et al. — Neuroscience. — Oxford University Press, 2022.

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlanishida iste'molchilar xulq atvori modelining ahamiyati

Ergasheva Dildora Diyor qizi

Guliston Davlat Universiteti, “Iqtisodiyot” yo`nalishi, 2-bosqich magistranti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'molchilar xulq-atvori modeli nima.Uning iqtisodiyot tarmoqlariga ta`siri haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.Iste`molchilar xulq-atvorining nazariyalari va iste`molchilar xulq atvorini shakllantiruvchi omillar batafsil yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Iste'molchilar xulq-atvori modeli,iqtisodiyot tarmoqlariga ta`siri, iste'molchilar xulq-atvorining nazariyalari.

Iste'molchilar xulq-atvori iqtisodiyot va marketing sohalarida muhim ahamiyatga ega. U iste'molchilarning xarid qilish qarorlarini, mahsulotlarga bo'lgan munosabatlarini va brendlar bilan aloqalarini belgilaydi.Iqtisodiyotning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, iste'molchilar xulq-atvori ulardan eng muhimlaridan biridir. Iste'molchilarning qanday qilib xarid qilishlari, qaysi mahsulotlarga qiziqishlari va ulardan qanday foydalanishlari iqtisodiy tarmoqlar va sohalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada iste'molchilar xulq-atvorining iqtisodiyotga ta'siri va tarmoqlar rivojlanishidagi ahamiyati,iste'molchilar xulq-atvorining asosiy nazariyalari, uni shakllantiruvchi omillar va iqtisodiy sohalarga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Iste'molchilar xulq-atvori modeli – bu iste'molchilar qarorlarini qanday qabul qilishi, ularning ehtiyojlari, xohishlari va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan nazariyadir. Bu model:

Psixologik omillar: Iste'molchilar hissiy va ruhiy holatlariga ko'ra xarid qilish qarorlarini qabul qiladilar.

Ijtimoiy ta'sirlar: Oila, do'stlar va jamiyatning boshqa a'zolari iste'molchilarni xarid qilishda katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Madaniy omillar: Madaniyat va an'analar iste'molchilarni ma'lum mahsulotlarga yoki xizmatlarga qiziqishlarini oshiradi yoki kamaytiradi.

Iqtisodiyot Tarmoqlariga Ta'siri haqida ko`rib chiqadigan bo`lsak,

1. Savdo va Marketing.Iste'molchilar xulq-atvori tarmoqdagi marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Agar iste'molchilarni qiziqtiradigan mahsulotlar va xizmatlar taklif etilsa, bu savdo hajmini oshirishi mumkin. Misol uchun, brendlarning reklama kampaniyalari iste'molchilar xulq atvorini o'zgartirish orqali xaridlarni ko'paytirishi mumkin.

2. Mahsulot Rivojlanishi.Iste'molchilar xulq-atvori modeli asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqish jarayoni amalga oshiriladi. Mahsulotlar iste'molchilar ehtiyojlariga mos ravishda loyihalashtirilganda, ularning muvaffaqiyati yuqori bo'ladi.

Masalan, sog'lom ovqatlanishga bo'lgan qiziqish ortishi oziq-ovqat sanoatida yangi, sog'lom variantlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

3. Innovatsiyalar va Texnologiyalar.Iste'molchilar xulq-atvori, shuningdek, innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni ham belgilaydi. Yangi texnologiyalar iste'molchilarning talablarini qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Misol uchun, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi iste'molchilarning xarid qilish jarayonini osonlashtirdi.

Ratsional xulq-atvor nazariyasi: Ushbu nazariya asosida iste'molchilar xarid qilishda ma'lumotlarga tayanadi. Ular foyda va xarajatlarni taqqoslab, eng yaxshi variantni tanlaydi. Misol uchun, iste'molchi mahsulotning narxi, sifat va foydaliligi kabi omillarni hisobga oladi.

Psixologik nazariya: Iste'molchilarning qarorlari ko'pincha hissiy omillarga bog'liq. Brendlar va reklama orqali iste'molchilar o'zlariga yoqadigan his-tuyg'ularni yaratishga harakat qiladilar. Masalan, brendlar hayajon, quvonch yoki xavfsizlik hissini uyushtiradigan reklamalarni ishlab chiqishadi.

Ijtimoiy ta'sir nazariyasi: Oila, do'stlar va ijtimoiy muhit iste'molchilar xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, do'stlar tavsiyasi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlar iste'molchilarni xarid qilishda yo'naltirishi mumkin. Iste'molchilar xulq-atvorini shakllantiruvchi omillar.Ehtiyojlar va xohishlar: Iste'molchilar o'z ehtiyojlari va xohishlariga ko'ra mahsulotlarni tanlaydilar. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki texnologik qurilmalar xaridi bularning barchasini o'z ichiga oladi.

Madaniyat va an'analar: Har bir jamiyatning o'ziga xos madaniyati iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bir mamlakatda an'anaviy ovqatlar mashhur bo'lsa, boshqasida tez tayyorlanadigan ovqatlar talab yuqori bo'lishi mumkin. Iqtisodiy sharoitlar: Iste'molchilarning moliyaviy imkoniyatlari xarid qilishga ta'sir qiladi. Qiyin iqtisodiy sharoitlarda iste'molchilar ko'proq arzon mahsulotlarga o'tishlari mumkin.

Iqtisodiy Sohalarga Ta'siri.Iste'molchilar xulq-atvori rivojlanishga va marketing strategiyalariga ta'sir qiladi. Misol uchun: iqtisodiy Savdo Strategiyalari: Iste'molchilar xulq-atvori haqida tushuncha, kompaniyalarni savdo strategiyalarini o'zgartirishga undaydi. Agar iste'molchilar sog'lom ovqatlarga qiziqsalar, kompaniyalar sog'lom mahsulotlarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratadilar.

Mahsulot rivojlanishi: Iste'molchilar xulq-atvori tahlili, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Tahlil orqali iste'molchilarni qiziqtiradigan yangi mahsulotlar yaratiladi.

Iste'molchilar xulq-atvori modeli iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu model iste'molchilar ehtiyojlari va xohishlarini tahlil qilish orqali marketing, mahsulot rivojlanishi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va o'sishi uchun iste'molchilar xulq-atvorini chuqur tushunish zarurdir. Shunday qilib, iste'molchilarning o'zgaruvchan xulq-atvori iqtisodiy muvaffaqiyatning kalitidir.Iste'molchilar xulq-atvori nafaqat iqtisodiy sohalarda, balki jamiyatda ham katta ahamiyatga ega. Iste'molchilar qanday xarid

qilishlari, mahsulotlarga bo'lgan munosabatlari va brendlar bilan aloqalari iqtisodiy o'sishni belgilaydi. Shuning uchun, iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va tushunish kompaniyalar uchun muhimdir. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Fatxullayev Amonillo Murodillo o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Bugungi texnologik taraqqiyot sharoitida inson faoliyatining ekologik oqibatlarini kamaytirish uchun innovatsion yechimlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Maqolada “yashil energiya”, “aqlli monitoring tizimlari”, “biofiltratsiya” va “raqamli ekologiya” kabi yo‘nalishlarning ekologik muhitni tiklashdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” loyihasi va boshqa ekologik tashabbuslarning texnologik asoslari haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik boshqaruvga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish nafaqat tabiatni himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, texnologiya, yashil energiya, ekologik xavfsizlik, biofiltratsiya, raqamli ekologiya, atrof-muhit, innovatsiya, barqaror rivojlanish.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng muhim global muammolardan biri — bu atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik muvozanatning buzilishidir. Texnologik taraqqiyot jarayonida inson faoliyati tabiatga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalarni ekologik muhofazaga xizmat qildirish muhim ehtiyojga aylandi. Ilg‘or texnologiyalar yordamida chiqindilarni qayta ishlash, atmosfera havosini tozalash, suv resurslarini nazorat qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Ekologik muammolarni bartaraf etishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash — bu nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masaladir.

Insoniyatning texnologik taraqqiyoti bilan bir qatorda atrof-muhit muammolari ham chuqurlashib bormoqda. Hozirgi davrda ekologik muvozanatning buzilishi, chiqindilar

ko‘payishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi kabi global muammolar inson salomatligi va tabiiy muhit barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Shuning uchun ekologik xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda innovatsion yechimlarsiz atrof-muhitni muhofaza qilishni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Zamonaviy texnologiyalar ekologik boshqaruvning barcha bosqichlarida samarali natijalar bermoqda. Masalan, sun’iy yo‘ldoshlar orqali atmosfera holatini real vaqt rejimida kuzatish, ekologik monitoring tizimlari orqali havodagi zararli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash, chiqindilarni qayta ishlashda biotexnologiyalarni qo‘llash — bularning barchasi zamonaviy ilm-fanning ekologiyaga xizmat qilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, “yashil energiya” konsepsiyasi — ya’ni quyosh, shamol, suv va biomassa energiyasidan foydalanish — tabiatga yetkaziladigan zarar miqdorini sezilarli darajada kamaytiradi.

O‘zbekistonda ham ekologik siyosat zamonaviy texnologiyalar asosida shakllanmoqda. “Yashil makon” loyihasi, “Raqamli ekologiya” platformasi va chiqindisiz ishlab chiqarish korxonalarining soni ortayotgani — bu yo‘nalishda olib borilayotgan amaliy ishlarning isboti. Ayniqsa, ekologik monitoring tizimlari yordamida havo sifati, suv resurslari holati va chiqindilar darajasi muntazam kuzatilib, ekologik qarorlar ilmiy asosda qabul qilinmoqda.

Kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilishda sun’iy intellekt, raqamli tahlil va “aqlli shahar” tizimlari yanada keng qo‘llaniladi. Bunday yondashuvlar orqali inson ekologik jarayonlarni nafaqat kuzatadi, balki oldindan bashorat qilishi va zarur chora-tadbirlarni tezkor amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Shu sababli, ekologik siyosatni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish — barqaror rivojlanishning eng muhim omillaridan biridir.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, zamonaviy texnologiyalar ekologik muammolarni hal etishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Texnologiyalar yordamida chiqindilarni kamaytirish, energiya manbalaridan samarali foydalanish, atmosfera va suvni tozalash, hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sirini minimallashtirish mumkin.

O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkinki, ekologik loyihalar texnologik yondashuv asosida amalga oshirilganda ularning samaradorligi ortadi. Shu bois, atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion yechimlar — kelajak ekologiyasining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). *Reading Images: The Grammar of Visual Design*. London: Routledge.
2. Halliday, M.A.K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). *Yashil makon* loyihasi ma’lumotlari.
5. Smith, J. (2021). *Green Technologies and Sustainable Development*. Springer Nature.

XIVA XONLIGI TASHQI SIYOSATIDA ERON BILAN BOG‘LIQ DIPLOMATIK MUNOSABATLAR MANBASHUNOSLIGI.

Shonazarova Ilmira Gafur qizi

Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo‘yicha) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligi tashqi siyosiy maydonida Eron bilan bog‘liq bo‘lgan diplomatik aloqalarning mahalliy tarixiy manbalar va Eron elchilar xotirot va kundaliklarida keltirib o‘tilgan siyosiy ijtimoiy hamda iqtisodiy voqealar tarixshunoslik va manbashunoslik jihatdan o‘rganilishi yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье исследование дипломатических отношений с Ираном во внешнеполитическом пространстве Хивинского ханства объясняется с точки зрения историографии и источниковедения политических, социальных и экономических событий, упомянутых в мемуарах и дневниках иранских послов.

Abstract. In this article, the historical and source studies of diplomatic relations related to Iran in the Khiva Khanate's foreign policy, political, social and economic events mentioned in the memoirs and diaries of Iranian ambassadors are highlighted.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, O‘rta Osiyo, Eron, elchilik, diplomatik munosabatlar,siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayot, qullar,kundalik hisobotlar,

Ключевые слова: Хивинское ханство, Средняя Азия, Иран, посольство, дипломатические отношения, политические процессы, экономическая и социальная жизнь, рабы, ежедневные сводки,

Key words:Khanate of Khiva, Central Asia, Iran, embassy, diplomatic relations, political processes, economic and social life, slaves, daily reports.

Davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni xalqaro munosabatlarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasiga bogliq ravishda takomillashib bordi va hozirda ham diplomatik munosabatlarning ahamiyati davlatlar o'rtasidagi do‘stlik, hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik hamda millatlar aro totuvlikni ta'minlab beruvchi omildir.

Eron va turon xalqlari ham azal – azaldan bir biri bilan do`stlik, hamkorlik va diplomatik munosabatlar o`rnatib kelgan. Bu xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, savdo va madaniy aloqalari tarixi eramizdan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. Buni eng qadimiy yozma manbalar, xususan ’’ Avesto ’’ va Firdavsiyning ’’ Shoxnoma ’’ asarlari, qadimiy yozuv, ashyoviy yodgorliklar, Xorazm vohasidagi va boshqa hududlarimizdagi forsiy toponimlar isbotlaydi.

Xiva xonligida ham qadim turkiy davlatchilik, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida vujudga kelib qaror topgan xalqaro elchilik munosabatlari tamoyillariga qat’iy amal qilingan. Shu sababli xalqaro elchilik munosabatlarining muhim jihatlariga va ularning milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Eron bilan aloqalar haqida tarixchi Abulgoziy Bahodirxon "Shajarayi Turk" asarida Eron shohi Tahmasib I (1524-1587)ning Xiva xoni Bogchaxon jiyaniga uylangani qayd etilgan. Buxoro shayboniylariga qarshi kurashda ittifoqchilik qilgan Xorazm sultoni Din Muhammad (XVI) minatdorchilik tariqasida Eron shohi tomonidan faxriy ton va yiliga 300 tuman pul mukofotibilan taqdirlangan, yani shoh unga har yili Sabzavordan 300 Tabriz tumani yigib olish huquqini bergan.Hoji Muhammadxon davri ichki va tashqi siyosatda bir muncha yutuqlarga erishildi. Jumladan, Movarounnahrdagi shayboniy hukmdor Abdullaxon II ning tajovuskor haraktlari ham ikki davlatning munosabatlarini mustahkamlashga harakat qilgan. Hoji Muhammadxon davrida qo’shni davlatlar Buxoro, Eron va Rossiya bilan imkon darajada mustahkamlashga muvaffaq bo’lgan. Shajarai Turk asarida Abdullaxon II ning 1587-yildagi Xorazmga hujumida Hojimxon Eron shohi Abbos

I ga murojati haqida gap boradi. Eron manbalarida Hojimxon ilgargi shohlar bilan aloqalari o'rnatgani, jumladan, Shoh Tahmasib I, Ismoil II aloqalari, shuningdek, Shoh Abbos I taxtga o'tirgan paytdan u bilan yaqin aloqalar o'rnatgani haqida so'z boradi. Tahmasib I vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Ismoil II davrida Xorazm sultonlari katta mavqeiga ega bo'lganlar.Hojimxon shoh Abbos I taxtga o'tirgan davrda o'g'li Muhammadqulini qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan yuborgani haqida ma'lumot bor.[1]

Xorazm askarlarining Eron lashkari bilan birga Buxoroga qarshi kurashgani 1588-1593-yillarda Eron shohi huzurida bo'lgan rus elchisi G.Vasilchikov qayd etib o'tgan.Abdullaxon II Hojimxonni mag'lub etib, Xorazmni egallagan paytda u yaqin odamlari bilan Eronga yo'l olgan.

Eronda bo'lgan rus elchisi A.Zvenegorodskiy o'z esdaliklarida 1595-yil martda Navro'z bayrami bo'lgan paytda, shohning ikki tomonida Hojimxon farzandlari va jiyanlari bilan joylashganligi qayd etgan.Abdullaxon II vafotidan so'ng Xorazm sultonlari o'z yurtiga qaytib hokimiyatni egallash va mustahkamlashga imkon paydo bo'lgan.

Hojimxonning vorisi Arab Muhammadxon ham qo'shni davlat bilan aloqalrni mustahkamlashga harakat qilgan.Uning tashqi siyosatiga oid hujjatlarni rus manbalarida ko'plab uchratish mumkin.

Xivada Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining barbod bolganligi to'grisidagi xabarni Isfahonga yetkazib kelgan maxsus Xiva choparining Eron hukumati tomonidan 72 chervon bilan taqdirlanishi,Shoh Husaynning Xiva xoniga 2000 tumanpul taqdim qilganligi to'g'risida ma'lumotlar Xiva xonligi hududiga ko'plab Eron pullarining kirib kelish omillarini ko'rsatadi.Lekin o'rtadagi aloqalar har doim ham tekis o'tmagan. [2]

Xiva xonligi Eron bilan bog'liq munosabatlar Shermuhammad Munis Xorazmiyning asarida ham keltirib o'tilgan. "1228 (1813-1814) yili" Umarshayx va Amirxonkim Xuroson bilodining xonlariga elchi qilib yubormish erdi oston bo'sliqg'a yetib, barcha xonlarning arizadosht va ixlosnomalarin yetkurdilar Rabi'-al-avval oyining avoyilida Hasan Murod otaliq Buxoro elchisi Boymuhammad jarchi boshi bilan Muhammad Raximxon mulozimatiga foyiz bo'ldi. Mohi mazkurning avohirida Berdi inoqni elchiyi mazburga qo'shub, Buxoroga irsol qildi Mazkur oyning 27 da yakshanba kuni Berdi inoq

Amir Haydaring elchisi Podshohoja sadr bila Buxorodin kelib, oston bo'sliq sharafiga ixlos topdilar Buxoro elchisi Podshoho'jaga yana Berdi inoqni masjub qilib Buxoroga yubordi Jumod-ul-avval oyining o'nida juma kuni Kurdistondin elchilar kelib tansuqoti mutakosira peshkash chiqdilar Jumadiy-as-soniy oyining sakkizida juma kuni Xuroson elchilari ixsoni podshohona va in'omi begarona bila bahra-mand qilib, o'z Yurtlariga ruxsat berdi. Badirxon bek va Muhammad Husayn bekni Sattor Quli oqo bila mazkur bo'lg'on elchilarga qo'shub yubordi. Bu mazmun bilakim: "Agar ellig va itoat izxorida sodiq bo'lsalar, kuz faslida inshoollo ul tarafg'a azm yetkumizdir. Agar el muxolif bo'lsalar, alar samtig'a nuhzat qilg'umizdur. Agar el bo'lsalar, Saodat Qulixon yanglig' akobir va mo'tabar kishilardan ko'p kishi mulozimatga irsol qilib, zakot va xirojni kamo hak ahu yuborsinlar. Alar Seshanba kuni Xuroson azimati bila, yo'lga tushib ravon bo'ldilar.''[3] Muallif bu fikrlar orqali Eron bilan bog`liq munosabatlarning mamlakat siyosatida tutgan o`rnini ko`rsatib bergan.

Shermuhammad Munisning jiyani Ogahiy ham saroy tarixchisi sifatida elchilik aloqlarini tavsiflab Erondan kelgan va elchi sifatida jo'natilganlarni nomini sanab ular qay vaj sababidan ketganligini ham o'zining "Riyoz ud-davla" va Jome ul-voqeaoti sultoniy" asarlarida yozib qoldirgan.

Xiva xonligining XIX asr siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida roy bergan voqealar haqidagi ma'lumotlar bizgacha o'sha davr vatandosh tarixnavislar va arxiv hujjatlari orqali yetib kelgan. Shuningdek, jumladan, bu kabi materiallar mazkur asrda Xivaga kelgan xorijiy mamlakatlar diplomatlarining xotira-kundalik va hisobotlarida ham aks etgan bo`lib, ularning ayrimlari o'sha davrdayoq chet o'lkalarda nashrdan chiqqan. Albatta, bu kabi asarlarda muayyan bir davlatning Xiva hukumati bilan siyosiy aloqalari masalasi ko`proq aks etgan. Xususan Xiva xonligida taxtga o'tirish qonun-qoida va rasm-rusumlari xususida 1851- yilda qayd etilgan Mirzo Rizoqulixon Hidoyatning "Safarotnomayi Xorazm" safar kundaligida atroflicha keltirib o'tgan. [4]Bu elchilik xususida Bayoniy o'zining " Shajarai Xorazmshohiy" asarida keltirib, o`zaro munosabatlari yaxshilash,do`stlik va hamkorlik masalari xususida xon xuzuriga tashrif yuborganini o`z asarida bayon etib o`tgan.

Xiva va Eron o‘rtasidagi do‘stlik va elchilik aloqlari hamisha ham bir xilda kechmaganligini biz Eronlik general Ismoil Mirpanjiyning Xiva xonligi hududiga qilgan yurishi va unda asirlikka tushib qolgani xususida ham qiziqarli va tarixiy faktlarga to‘la " Asirlikdagi xotiralar" kundaligida o‘qishimiz mumkin.Unda Ismoil Mirpanjiy o‘z o‘g‘li bilan 10 yil davomida Xiva xonligi hududidagi asirlikdagi hayotini aks ettirib, nafaqat siyosiy balki ijtimoiy jarayonlarni ham yoritib bergan. [5]

Xonlikning siyosiy, iqtisodiy hamda aholi yashash turmush tarzi, urf-odatlari xususida Eronlik diplomat Muhammad Alixon G‘ofur o‘zining “Xorazm safari kundaliklari” da qayd etib o‘tgan. Kundalik hisobotlarda asosan 1840- yil Diplomatning Xonlik hududiga kelgan davri aks ettirilib, Eron va Xonlik o‘rtasidagi sovuqchilik munosabatlarini yumshatish hamda Eronlik qullarni o‘z yurtiga olib ketish sababidan keladi. Lekin uning bu say harakatlari natijasiz tugagan.[6]

Eron va O‘rta Osiyo aloqalari tarixidan fikr bildirgan taniqli N.D.Mikluxa-Maklay adabiyotlarda ushbu masala qisqa va yuzaki yoritilganligini ta'kidlab, bunga o‘rta asr manbalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, mavjud manbalarning ham asos va tub ildizlaridagi mazmun mohiyat to‘laligicha ochilmaganligini sabab qilib ko‘rsatgan.[7]

Yuqoridagi fikrga N.Allayeva ham o‘z izohini berib, " Bu fikr XX asrning 50-yillarida bildirilgan bo‘lib, oradan 50 yildan ortiq vaqt o‘tganligiga, oxirgi yillarda ko‘plab tarixiy manbalar tarjima qilinib, nashr etilganiga qaramay, bevosita Xiva xonligining tashqi aloqlari tarixiga bag‘ishlangan ishlar nihoyatta kamchilikni tashkil etadi [8] deya Xiva xonligining tashqi diplomatik munosabatlari to‘liqroq keng miqyosda o‘rganilmaganligini ta'kidlab o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Xiva va Eron diplomatik munosabatlar tarixining yoritilishi saroy ,mahalliy tarixchilarning va eronlik ambassadorlarning kundalik va hisobotlarida qayd etib borilgani sababli o‘sha davrning siyosiy ahvolini, shu bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini ham aks ettirib o‘tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulg‘ozi Bahodirxon ’’ Shajaraiy Turk ’’ Toshkent 1992y

2. Bu ekspeditsiya yo'nalishi Kaspiy bo'yidan Xiva xonligi hududiga olib keluvchi karvon yo'llari orqali amalga oshirilgani ma'lum. Bu haqda qarang: Х.Г. Дипломатическая отношения государств Средней Азии с Россией в XVIIIИ – первой половине XИХ в. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 55-58.

3.Shermuhammad Munis " Firdavs ul-iqbol '' I.Bekchanov va N.Polvonov Toshkent 2019y

4.Mirzo Rizoqulixon Xidoyatning ''Saforotnomayi Xorazm''

5. Ismoil Mirpanjiy "Asirlikdagi xotiralar" Habibullo xasanov tarjimasi asosida

6. Muhammad Alixon G'ofurning " Xorazm safari kundaliklari" Ismoil Bekchon tarjimasi Toshkent '' Yangi Asr Avlodi '' 2009y

7. Миклухо - Маклай Н.Д. К истории политических взаимоотношений Ирана со Сред- ней Азией в XVI веке // Краткие сообщения ИВ АНСССР . Вып . IV. М. , 1952. - С.11

8. N.Allayeva Xiva xonligi diplomatiyasi va savdo aloqalari Toshkent 2019 y.

MUNDARIJA

1	ОНА ҚАДРИ **Раҳматулло ШОБЕРДИЕВ**	**4**
2	O'ZBEK VA TURK TOPISHMOQLARIDA TABIAT OBRAZINING IFODALANISHI **Muhammadsodiq SHODMONOV**	**6**
3	“Рақамли суд” концепцияси- судлар фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлашнинг муҳим омили **Тимур Абдраманов Турғун Қаҳҳоров**	**14**
4	АДВОКАТЛИК ТУЗИЛМАЛАРИГА МОЛИЯ МУАССАСАЛАРИ ТОМОНИДАН ТЎЛОВНИ АМАЛГА ОШИРИШ ТАРТИБИ **Тураев Шахриёр Шодиёрович**	**17**
5	TÜRKÇEDE FIILLER: AKADEMIK BIR İNCELEME **Xojiyeva Muxlisa Abdumansur qizi**	**24**
6	Xalqaro huquqda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi **Tajibayeva Laylo Ulug’bek qizi**	**28**
7	Physiology of the central nervous system **Abdulloyeva Mohinur**	**33**
8	Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlanishida iste'molchilar xulq atvori modelining ahamiyati **Ergasheva Dildora Diyor qizi**	**38**
9	ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI **Fatxullayev Amonillo Murodillo o‘g‘li**	**41**
10	XIVA XONLIGI TASHQI SIYOSATIDA ERON BILAN BOG‘LIQ DIPLOMATIK MUNOSABATLAR MANBASHUNOSLIGI **Shonazarova Ilmira Gafur qizi**	**44**